

SALJUQIYLAR DAVLATINING BOSHQARUV TIZIMI VA DAVLAT LAVOZIMLARI

I.M. Xaydarov

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti “Markaziy Osiyo xalqlari tarixi”
kafedrasi professori v.b., tarix fanlari doktori (DSc).

Ibrohimov Alisher Aktam o‘g‘li

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
“Sharq mamlakatlari tarixi” yo‘nalishi 1-kurs talabasi.

E-mail: izzatillakhon@gmail.com, ibrohimova187@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15320674>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Saljuqiylar davlatining ma'muriy boshqaruvi, undagi davlat lavozimlari va ularning vazifalari yoritildi. Maqolada O'rta asrlarda faoliyat yuritgan ushbu davlatning devon va boshqaruv tizimi va dargohda faoliyat ko'rsatgan davlat lavozimlari ularning vazifalari haqida ma'lumotlar ochib berildi.

Kalit so'zlar: Sulton, monarxiya, Nizomulmulk, Siyosatnoma, devon, xalifa, silohdor, hojib, voliy.

ADMINISTRATIVE SYSTEM AND STATE POSITIONS OF THE SELJUK STATE

Abstract. This article covers the administrative administration of the Seljuk state, state positions in it and their functions. The article provides information about the divan and administrative system of this state that operated in the Middle Ages, and the state positions that operated in the court and their functions.

Keywords: Sultan, monarchy, Nizamulmulk, Siyosatnama, divan, caliph, silahdar, hajib, governor.

СИСТЕМА УПРАВЛЕНИЯ И ПРАВИТЕЛЬСТВЕННЫЕ ДОЛЖНОСТИ ГОСУДАРСТВА СЕЛЬДЖУКИДОВ

Аннотация. В статье рассматривается административное управление Сельджукского государства, государственные должности в нем и их обязанности. В статье раскрываются сведения об административно-управленческой системе этого государства, действовавшей в средние века, а также о государственных должностях и их функциях, действовавших в государстве.

Ключевые слова: султан, монархия, Низам-уль-Мульк, Сийосатнама, диван, халиф, вооруженный, хаджиб, правитель.

Saljuqiylar davlati o'rta asrlarda tashkil topgan eng katta davlatlardan biri va turkiy dunyo davlatchilik tarixida juda katta iz qoldirgan. Saljuqiylar kelib chiqishi bo'yicha turkiy o'g'uz qavmiga mansub bo'lib dastlab Sirdaryoning o'rta oqimidagi yerlarda ko'chmanchi holda hayot kechirgan. O'g'uz qavmi bir qancha urug'larga bo'linar edi va ushbu urug'lardan biri - qiniq edi.

Qiniq qabilasining sardori esa Saljuqiylar davlatining asoschisi Saljuq ibn To'qoq edi.

O'g'uzlar davlati va konfederatsiya shaklidagi siyosiy tuzumi 756- 1055-yillar orasida shakllandi va taraqqiy etdi. O'g'uzlar VII asrda Turk xoqonligi tarkibida G'arbiy Yettisuv hududida istiqomat qilgan, VIII asr oxirlarida esa turkashlar xoqonligi tanazzulga yuz tutishi bilan esa Yettisuv hududini tark etib. Sirdaryo mintaqasiga ko'chib kelib joylashgan. Bunga turkashlarning merosi uchun ularning qarluqlar bilan bo'lgan kurashi sabab bo'lgan. XI asrda ular Orol dengizidan shimoldagi cho'llar va Sirdaryo quyi oqimidagi yerlarda joylashganlar.

Ammo Sirdaryo atrofidagi yerlarda ular qang'lilar qarshiligiga duchor bo'lganlar va bu kurashlar oqibatida VIII-IX asrlarda Sirdaryoning o'rta va quyi qismlarida O'g'uzlar davlatini tashkil qilganlar. Islom dinini qabul qilgan O'g'uzlar turklar nomi bilan tarixga kirgan.

Saljuqiylar davlati o'z taraqqiyotining cho'qqisiga erishgan davrda markaziy va ma'muriy boshqaruv tizimi ham kuchaygan. Saljuqiylar davlati boshqaruv tizimi mutlaq monarxiya bo'lib, boshqaruv albatta shaxsan hukmdorning qo'l ostida edi. Saljuqiy hukmdorlar boshqa turkiy hukmdorlaridan farqli ravishda o'zlarining nomlarini turkcha so'z va atamalardan olganlar. Faqatgina xalifa nomidan berilgan unvon va laqablarga arab tilidan olingan. Xususan xalifa al-Muqtadiy sulton malikshoh uchun "Mu'iz ad-dunyo va-d-din" unvonini ta'sis etgan.

Saljuqiy hukmdorlarga qadar podshohlarning unvonlarida dunyo va din atamalari uchramagan. Sulton Malikshohdan tashqari yana bir qancha Saljuqiy hukmdorlarning ham arabcha unvonlari bor edi. Masalan: Mahmud ibn Malikshoh – "Nosir ud-dunyo va-d-din", Sanjar ibn Malikshoh "Mu'iz ad-din Abul-Xoris Ahmad", Muhammad ibn Malikshoh – "G'iyos ud-dunyo va-d-din" kabi arabcha unvonlarga ega edi.

Saljuqiylar davlati ma'muriy boshqaruv tizimida bosh vazir alohida mavqega ega bo'lgan. Manbalarda bosh vazir "rais ur-ruaso" (raislarning boshlig'i), "sayyid ur-rusao" (boshliqlarning kattasi) deb atalib barcha devonlarga va ishlab chiqarish muassasalariga rahbarlik qilgani haqida ma'lumotlar uchraydi. Saljuqiylar davlatida bosh vazir lavozimining mavqei shu qadar ediki ba'zi vazirlar hukmdorlik uchun valiahdlarning kurashida hukmdor tayinlay olish darajasidagi kuchga ega edi.

Jumladan shunday yuqori mavqega ega vazirlardan biri Abu Ali Tusiy - Nizomulmulk edi. Nizomulmulk (1063-1092) yillar oralig'ida deyarli 30 yil davomida saljuqiylar hukmdori Alp Arslon va Malikshoh saroylarida bosh vazir lavozimida ishladi. Nizomulmulk faxriy taxallusini unga sulton Malikshoh yuksak salohiyati, aql-u zakovati uchun bergan. Nizomulmulk o'zidan davlat boshqaruviga oid bir buyuk asarni ya'ni "Siyosatnoma"¹ni avlodlarga meros qilib qoldirdi.

Mirxondning "Ravzat us-safo" asarida Nizomulmulk faoliyati bilan bog'liq quyidagi jumla keladi: "Bir kuni Malikshoh Nizomulmulkning o'g'lidan xafa bo'ladi. U sulton shixnasi (qal'a hokimi)ni tahqir qilgan emish. Sulton o'z vaziri oldiga odamlarini yuborib, xafa bo'lganini aytiradi: "Agarda mamlakat boshqaruvida sen menga sherik bo'lsang mayliya biroq menga tob'e bo'lsang nega o'g'ling qilmishlarini nazorat qilmaysan? U haddidan oshib kettiku. Xohlasam buyuraman oldingdan davot (lavozim)ni oladilar". Nizomulmulk unga quyidagicha javob berdi: "Sening davlat-u tojing mening davotimga bog'liq, vazirlikni mendan olsang sendan taxtingni oladilar"².

Saljuqiylar boshqaruv tizimi dargoh va devondan iborat bo'lib dargohdagi eng katta lavozimlar quyidagilar edi: **Ulug' hojib** - oliy hukmdorning eng yaqin kishisi bo'lib dargoh va devon o'rtasidagi aloqalarni muvofiqlashtiruvchi shaxs;

Amiri horis - oliy hukmdor chiqargan jazolar, hukmlarni ijro etish bilan shug'ullanuvchi amaldor shaxs;

Silohdor - saroydagi qurol-aslaha, ayniqsa oliy hukmdorga tegishli narsalarni saqlash bilan shug'ullanuvchi mansabdor shaxs;

Xos vakil - dargoh ishlarini boshqaruvchi amaldor;

Jangdor - sulton va dargoh xavfsizligini ta'minlovchi amaldor;

Undan tashqari oliy hukmdor huzuridagi dargoh faoliyatini ta'minlashda **jomador**³, **sharobdor**⁴, **choshnigir** (sultonning ovqatlanishiga ma'sul), **sarhang**, **miroxo'r**⁵, **tashtdor**⁶ kabi amaldorlar ham xizmatda bo'lgan. Saljuqiylar davlatida devonlarning ikki turi mavjud edi: 1) Sulolaviy devonlar, 2) Rasmiy devonlar.

¹ Siyosatnoma asari Abu Ali Tusiy qalamiga mansub bo'lib XI asrda yozilgan

² Zamonov A. O'zbekiston tarixi. II qism. – Toshkent: Bayoz, 2024.

³ Jomador – Saljuqiylar davlatida dargohdagi lavozimlardan biri.

⁴ Sharobdor – Sulton ichimliklar ombori boshlig'i

⁵ Miroxo'r – Hukmdor otxonasi boshlig'i

⁶ Tashtdor – Hukmdor hammom va hovuzlari boshlig'i

Sulolaviy devonlar - sulton va uning xonadoniga tegishli bo'lgan mol-mulk va xazinalarning hisob-kitobi va boshqaruvi bilan shug'ullangan. Rasmiy devonlarning o'zi ham to'rtga bo'lingan:

Devoni tug'ro - bu devon oliy hukmdorning farmonlari, qarorlari, rasmiy yozishmalari va hujjatlarini tayyorlab, ularni muhr bostirishga taqdim etgan. Joylarga rasmiy hujjatlar yuborish, ulardan qabul qilish chet elga maktub chiqarish, maktub qabul qilish ishlari bilan shug'ullangan. Tashqi siyosatda muhim rol o'ynagan.

Devoni istifo (moliya devoni) - davlat kirim-chiqimlarini, soliqlar, boj va boshqa moliyaviy daromadlar bilan shug'ullangan. Bu devonning xizmatchilari sulton dargohining ham kirim-chiqimlari, xazinadagi ahvol, hukmdor qaramog'ida bo'lgan shaxslarga ketadigan xarajat, maosh va nafaqa miqdori kabilarni nazorat qilgan.

Devoni ishrof (davlat nazorati) - moliya va soliq ishlarini nazorat qilish va tekshirish, vaqfga tegishli mulklar ustidan umumiy nazorat olib borish, hukmdor sulolaga tegishli yersuvlar, zarbxonalar, bozor mutasaddilari, qishloq oqsoqollari ustidan nazoratni amalga oshirgan.

Devoni arz (harbiy vazirlik) - lashkarga mo'ljallangan maosh va ta'minot, harbiylarning ro'yxati, yangilanib turishi, harbiy qismlarning tarkibiy soni ularga ketadigan xarajat umuman olganda davlat harbi ishi uchun javobgar bo'lgan vazirlik.

Saljuqiylar davlati boshqaruv tizimi o'z davrining ilg'or siyosiy tuzilmalaridan biri bo'lib, u turkiy an'analar bilan islomiy davlat boshqaruvi tamoyillarini uyg'unlashtirgan.

Davlat markazlashgan bo'lishiga qaramay, unda sulton, vazir, amirlar va viloyat hokimlari o'rtasida aniq vakolatlar taqsimlangan edi. "Iqto" tizimi orqali yer va harbiy xizmat o'rtasidagi bog'liqlik mustahkamlangan bo'lib, bu davlatning harbiy va iqtisodiy barqarorligini ta'minladi.

Saljuqiylar ilm-fan, madaniyat va islomiy qadriyatlarni qo'llab-quvvatlash orqali o'z zamonasida kuchli siyosiy va madaniy markazga aylanishga erishdi. Ularning boshqaruv tajribasi keyingi musulmon davlatlari siyosiy tuzilmasiga ham kuchli ta'sir ko'rsatgan.

REFERENCES

1. Nizomulmulk. Siyosatnoma. – Toshkent: Yoshlar matbuoti, 2022.
2. Zamonov A. O'zbekiston tarixi. II qism – Toshkent: Bayoz, 2024.
3. Sagdullayev A. O'zbekiston tarixi. I qism. – Toshkent: Fan, 2018.
4. Bartold A. Musulmon sulolalar. – Toshkent.: Fan, 2007.

5. Usmonov Q., Sodiqov N., Oblomurodov N., O'zbekiston tarixi. I qism. –Toshkent: Xalq merosi, 2002.
6. Shamsutdinov R., Karimov Sh., Ubaydullayev O., Vatan tarixi. I qism. –Toshkent: Sharq, 2010.